

GIYOHVANDLIK VOSITALARI KONTRABANDASIGA QARSHI KURASHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Alisher Temirovich ACHILOV

professor v.b.

yuridik fanlar bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Tashkent International University

Toshkent, O'zbekiston

e-mail: achilov1976@mail.ru

Annotatsiya

Maqolada giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash borasida xalqaro qonun hujjatlari va milliy qonunchiligimiz tahlili asosida mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek kontrabanda jinoyati va giyovandlik vositalariga oid qonun hujjatlarni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha takliflar bildirilgan.

Tayanch so'zlar: kontrabanda, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar, konvensiya, jinoyat qonunchiligi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ БОРЬБЫ С КОНТРАБАНДОЙ НАРКОТИКОВ

Алишер Темирович АЧИЛОВ

И.о. профессора

доктор философии (PhD) по юридическим наукам

Ташкентский международный университет

Ташкент, Узбекистан

e-mail: achilov1976@mail.ru

Аннотация

Статья посвящена борьбе с незаконным обращением с наркотическими средствами и психотропными веществами, основанные на анализе международно-правовых актов и национального законодательства, а также излагаются предложения по совершенствованию правового регулирования нормативных правовых актов в области борьбы с контрабандой наркотических средств и психотропных веществ.

Ключевые слова: контрабанда, наркотические средства и психотропными вещества, сильнодействующие вещества, конвенция, уголовное законодательство.

Bugungi global tahdid manbalari ko'payib borayotgan davrda, dunyoning turli joylarida qarama-qarshilik va keskinlik tobora kuchayib, terrorizm, separatizm, ekstremizm, narkotrafik hamda boshqa xavf-xatar va tahdidlar barchamizni xavotir va tashvishga solmasdan qo'ymaydi. Mana shunday o'ta

murakkab vaziyat barchamizdan avvalo ogoh, hushyor va sezgir bo'lishni talab qilmoqda.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash va giyohvandlikning tarqalishini oldini olish huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. Zero, giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi aholining hayoti va sog'lig'iga jiddiy xavf tug'diradi, boshqa jinoyatlarning o'sishi, korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikni tarqalishiga imkon tug'diradi, jamoat tartibi va xavfsizligiga tahdid soladi, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy asoslarni yemiradi.

O'zbekiston Respublikasi uzoq yillardan buyon giyohvandlik moddalarining mamlakat madaniy va ma'naviy hayotiga salbiy ta'siri kuchayishini inobatga olib, unga qarshi kurashni milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sifatida baholab, mamlakatda ushbu illatiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamjamiyatga qo'shilib, bu boradagi jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini takomillashtirish borasida faol harakatlar olib bormoqda.

Bugungi kunda sohaga oid normalarni takomillashtirishda BMTning "Giyohvandlik vositalari to'g'risida"gi Yagona Konvensiyasi (1961-yil) [11], "Psixotrop moddalar to'g'risida"gi (1971-yil) [12] va "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyalarda (1988-yil) [13] belgilangan talablar va ilg'or xorijiy davlatlar tajribalari inobatga olib kelinmoqda. Mazkur Konvensiyalar O'zbekiston Respublikasida 1995-yil ratifikatsiya [19] qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 246, 270–276-moddalarida kontrabanda va giyovandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishdan iborat jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan [3].

Jinoyat kodeksining 246-moddasiga muvofiq, bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yoxud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'xshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklaratsiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklaratsiyadan foydalanib, kuchli ta'sir qiluvchi, zaharli,

zaharlovchi, portlovchi moddalarni, radioaktiv materiallarni, portlatish qurilmalarini, qurol-yarog'ni, o'qotar qurolni, o'q-dorilarni yoki o'qotar qurolning asosiy qismlarini, shuningdek *giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni*, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarni, yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo'lgan material va moslamalarni, radioaktiv materiallarni (bundan buyon matnda kontrabanda ashyolari deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish boshqa jinoyatni, ya'ni kontrabanda jinoyatining tarkibini tashkil etadi [20].

Demak, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarni bojxona qonunchiligini buzgan holda O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tkazish uchun Jinoyat kodeksining Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar bobidagi 246-moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladi.

Xorijiy davlatlar tajribasi va amaliyot ko'rsatib turibdiki, kontrabanda jinoyatini sodir etuvchi shaxslar o'zlarining jinoiy maqsadlariga erishish uchun uyushgan guruhlar tarzida, o'z harakatlarini puxta nikohlab, sodir qilish uslublarni mukammallashtirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda sodir etmoqdalar. Ayni paytda, ushbu sohadagi jinoyatlarni aniqlash va to'g'ri tavsiflash bo'yicha ma'lum bir kamchiliklar mavjudligi va ularni isloh etib, kerakli choralar ko'rish zarurligini taqozo etmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasida sud-tergov amaliyotida, jumladan mamlakatning jinoiy-huquqiy siyosatini samarali ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilayotgan, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligidagi ayrim normalarning mukammal emasligi bilan bog'liq bo'lgan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinayotganligi ko'rsatib

o‘tilgan bo‘lib, jinoyat qonunchiligini takomillashtirish borasida quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish belgilangan, jumladan:

- jinoyat qonunchiligini xalqaro standartlarga unifikatsiya qilinganligi va muvofiqlashtirilganligi nuqtai nazaridan inventarizatsiya qilish;

- turlicha sharhlash yoki korrupsiya holatlari sodir etilishiga yo‘l qo‘yadigan yoxud ijtimoiy xavflilik darajasi va xarakteri jinoyat qonunchiligi prinsiplariga mos kelmaydigan qilmishlar uchun javobgarlik belgilanishiga yo‘l qo‘yadigan normalarni chiqarib tashlash;

- Jinoyat kodeksida qo‘llaniladigan atama va tushunchalarni ularning mazmuniga aniq ta’rif berish va yagona shaklda qo‘llash orqali takomillashtirish;

- jazolar tizimi va ularni tayinlash mexanizmlarini qaytadan ko‘rib chiqib, yanada takomillashtirish kabilar [4].

Shu o‘rinda, quyida kontrabanda jinoyati bo‘yicha javobgarlik masalalariga oid mavjud muammolar, qonunchilik va amaliyotda yuzaga kelayotgan ziddiyatli masalalarni bartaraf etish maqsadida yuridik tahlillar va xorijiy tajriba asosida qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan bir qator taklif va mulohazalar keltirib o‘tiladi.

Xususan, kontrabanda jinoyati O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 246-moddasida belgilagan bo‘lib, “kontrabanda” – lotincha “contra” – “qarshi”, “bando” – “hukumat farmoni” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “Hukumat farmoniga qarshi”, degan ma’noni anglatadi.

Leksografik adabiyotlarda, odatda, mazkur tushunchaning asosiy uch ma’nosi farqlanadi: birinchidan, kontrabanda deganda tovarlar, valyuta va boshqa boyliklarni chegaradan bojxona qonunchiligini buzib pinhona olib o‘tish tushuniladi; ikkinchidan, kontrabanda deb, chegaradan g‘ayriqonuniy yo‘l bilan olib o‘tilgan tovar yoki boshqa xildagi predmetga aytiladi; nihoyat, uchinchidan, ta’qiqlangan yashirincha amalga oshirilayotgan, bir joydan boshqa joyga pinhona ko‘chirilayotgan narsalar ba’zan kontrabanda deb ataladi [15]. Boshqa adabiyotlarda kontrabanda so‘zining mazmunini yoritishda tovarlarni chegaradan boj to‘lamasdan olib o‘tishga urg‘u beriladi. Shu tariqa kontrabanda deganda,

chegaradan maxsus soliq (boj) to'lamasdan olib o'tiladigan narsalargina tushunilishi ta'kidlanadi. Bizningcha, bu kontrabandaning mohiyatini tushunish hamda uni sirtidan o'xshash bo'lgan jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklardan ajratish, farqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayrim "maishiy" ma'nolari mavjudligiga qaramay, kontrabanda tushunchasi, bizning nazarimizda, hech shubhasiz, huquqiy tushuncha hisoblanadi. Undan xalqaro huquqiy hujjatlarda faol foydalaniladi. Bunga 1925-yil 19-avgustda Gelsingfors shahrida imzolangan "Alkagolli tovarlar kontrabandasini to'xtatish to'g'risida"gi konvensiya misol bo'lishi mumkin [10].

Tadqiqotlarimiz natijasida "kontrabanda" atamasiga lug'atlar [23], ensiklopediya [21] va xalqaro huquq adabiyotlarida [14] – tovarlar, qimmatliklar va boshqa ashyolarini davlat chegarasidan qonunga xilof ravishda olib o'tish, deb ta'rif berilganligini aniqladik.

Shuningdek, ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida tovar, qimmatliklar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi JK 246-moddasida ko'rsatilgan ayrim kontrabanda ashyolarining xususiyatlaridan kelib chiqib davlat chegarasidan o'tkazish uchun *alohida moddalarda* javobgarliklar belgilangan. Jumladan, aksariyat MDH davlatlari jinoyat qonunchiligi bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish JKning "kontrabanda" deb nomlanuvchi moddasida ko'rsatilgan bo'lib, 1-qismi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi JKning 182-moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilganidek *tovar va boshqa qimmatliklarni*, 2-3-qismlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi JKning 246-moddasi dispozitsiyasida ko'rsatilgan ayrim ashyolar, qonunga xilof ravishda davlat chegarasidan o'tkazish uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish jinoyati Qozog'iston Respublikasi JKning 234-moddasida "Iqtisodiy kontrabanda" deb nomlanadi [18]. Kanada davlatida esa «MigrantSmuggling» tushunchasi mavjud bo'lib, alohida qonunda insonlar (migrantlar) kontrabandasi uchun ham javobgarlik belgilangan [22].

Bizningcha, tovar yoki boshqa qimmatliklarni qonunga xilof ravishda davlat chegarasidan o'tkazishni O'zbekiston Respublikasi JK 182-moddasida

ko'rsatilganidek "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish" va kontrabanda ashyolarini qonunga xilof ravishda davlat chegarasidan o'tkazishni 246-moddasida ko'rsatilganidek, "Kontrabanda" deb nomlanganligi mohiyatiga ko'ra to'g'ri bo'lsada, terminologik nuqtai nazardan kamchiliklardan xoli emas, chunki erkin muomaladan chiqarilgan yoki cheklangan predmetlarni bojxona chegarasidan g'ayriqonuniy o'tkazishga tatbiqan "kontrabanda" atamasi saqlab qolingan.

Shu bois, "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish" va "Kontrabanda" jinoyatlarining nazariy huquqiy tahlillari, shuningdek xorijiy qonunchilik tajribasi asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori bilan tasdiqlangan Konsepsiyasida ko'rsatilgan "Jinoyat kodeksida qo'llaniladigan atama va tushunchalarni ularning mazmuniga aniq ta'rif berish va yagona shaklda qo'llash orqali takomillashtirish"ga qaratilgan vazifasidan kelib chiqib:

a) *O'zbekiston Respublikasi JK 182-moddasini "Tovar va boshqa qimmatliklarni kontrabanda qilish" deb nomlash;*

b) *JKning 246-moddasini "Jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ashyolarni kontrabanda qilish" deb nomlash;*

d) Jinoyat qonuni, avvalo, tajovuz obyektiga asoslangan holda alohida boblarga ajratilib tuzilganligini hisobga olsak, *Giyoxvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni JKning 246-moddasidagi dispozitsiyalaridan chiqarib, Jinoyat kodeksining "Giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomila qilishdan iborat jinoyatlar" nomli bobida "Giyoxvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni kontrabanda qilish" deb nomlanuvchi quyidagi tahrirdagi yangi modda kiritishni maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaymiz:*

Shuningdek, Kontrabanda jinoyatining xalqaro xususiyatini inobatga olgan holda, jinoyatni tavsiflashda jinoyatni takroran sodir etganlik belgisi muhim ahamiyatga ega, chunki turli xil tovarlar va ashyolar kontrabandasi bilan shug'ullanuvchi shaxslar ko'pincha bir xil jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanadi. Shu bois, ushbu jinoyatni takroran sodir etganlik belgisini milliy

qonunchiligimizga ham tatbiq etishni va javobgarlikka tortish masalasini hal qilishda inobatga olinishi lozim, chunki bunday norma bir qator xalqaro jinoiy huquq normalarida o'z ifodasini topgan. Ushbu institutni milliy qonunchilikda aks ettirish, albatta kontrabandaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshiradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublika Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismi giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni davlat chegarasidan noqonuniy olib o'tgan taqdirda jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida miqdoriga ko'ra ajratish va jazo tayinlashda inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublika Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni miqdori ko'rsatilmaganligi sababli, amaliyotda O'zbekiston Oliy sudi Plenumining 2023-yil 2-fevraldagi "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 2-sonli qarori 17-bandi 2-xatboshisida "Bojxona chegarasi orqali Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismida ko'rsatilgan kontrabanda predmetlarini o'tkazishda ifodalangan harakatlarni kvalifikatsiya qilishda kontrabanda predmetlarining miqdori huquqiy ahamiyat kasb etmaydi" deb ko'rsatilganligi sababli, oz miqdordagi giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni kontrabanda yo'li bilan olib o'tilgan holatlarga Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismi bilan malakalanib kelinmoqda.

Vazirlar Mahkamasining "Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, undan olib chiqish va tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni takomillashtirish to'g'risida"gi 2015-yil 12-noyabrdagi 330-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish haqida 2018-yil 27-oktabr kungi 878-sonli qarori bilan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning ko'p bo'lmagan, ozginadan ko'proq va ko'p miqdori belgilangan ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, ushbu ro'yxatda ko'rsatilgan ko'p bo'lmagan miqdor oz miqdorni tashkil qiladi [6].

Shaxsning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni oz miqdorda o'tkazish maqsadini ko'zlamay saqlashdan iborat harakatlari O'zbekiston

Respublikasi Jinoyat kodeksining 276-moddasi 1-qismi bilan emas, balki Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 56-moddasi bilan tasniflanib, eng kam ish haqining bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi [2].

Lekin, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni oz miqdorda bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazganlik uchun to'g'ridan-to'g'ri Jinoyat kodeksining 246-moddasi 1-qismi bilan malakalanib, besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Respublikamizda hozirgi kunda sud-huquq sohasida liberalizatsiya siyosati amalga oshirilayotgan bir vaqtda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni oz miqdorda bojxona chegarasidan qonunga xilof ravishda o'tkazganlik uchun ichki hududda noqonuniy saqlashga nisbatan jazo miqdori nihoyatda og'ir va bu odillik tamoyiliga zid bo'lib qoladi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni bojxona chegarasidan noqonuniy olib o'tgan taqdirda jinoyatni kvalifikatsiya qilish jarayonida miqdoriga ko'ra ajratish va jazo tayinlashda inobatga olish maqsadga muvofiq bo'ladi va albatta O'zbekiston Oliy sudi Plenumining "Bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi qarorida ham bu haqda tegishli qo'shimchalar kiritish lozim bo'ladi.

Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning yangidan-yangi, shu jumladan, kimyoviy (sintetik) "Dizayner" ko'rinishdagi turlarini paydo bo'lishi va muomalasining jadallashuvi jamiyat va iqtisodiyot uchun dolzarb muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ayni vaqtda O'zbekistonda ham yoshlar tomonidan turli xil psixoaktiv moddalarni iste'mol qilish holatlari ortib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat huquq-tartibot idoralari, balki, keng jamoatchilikdan ham ogohlik va hushyorlikni talab qiladi.

Ma'lumki, tarkibida giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud dori-darmonlar tibbiyotda ayrim kasalliklarni davolash va tibbiy amaliyot o'tkazish jarayonlarida keng qo'llanib kelinadi.

Shu bois, qayd etilgan dori-darmonlardan foydalanish jarayonining noqonuniy muomala shaklining oldini olishda qonunchiligimizda bo'shliqlar bo'lmasligi lozim. Ming afsuski, mavjud qonunlar va me'yoriy hujjatlar moddalarning tibbiy, ilmiy va ijtimoiy faoliyatlarda ishlatilishini aniq tartibga solmaydi.

Biroq, ta'kidlash lozimki, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda qayd etilgan dori vositalariga muhtoj bemorlarni ham inobatga olish lozim. Aks holda ular tomonidan dori vositalarini retsept asosida sotib olish va foydalanishda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, respublikaning ushbu dori vositalariga bo'lgan haqiqiy ehtiyojini belgilash tartib-tamoyillariga asoslangan mexanizmga e'tibor qaratish lozim.

Respublikada tarkibida giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud dori-darmonlarning qonuniy muomalasi 1999-yildagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni [1] va 12 ta qonunosti hujjatlari asosida tartibga solingan bo'lib, litsenziatlar ham o'z faoliyatlarini ushbu normalarda belgilangan talablar asosida olib boradi. Bu esa yuqoridagi preparatlarni noqonuniy faoliyatga o'tishining oldini oladi.

Shuningdek, respublikada dori vositalarining noqonuniy aylanishini oldini olish choralari kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PQ-4438-sonli qarori [5] qabul qilingan.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentabrdagi 818-sonli qarori [7] bilan kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ro'yxati, ularning jinoiy harakatni tasniflashda ko'p miqdor ko'rsatkichlari va TIF TN kodlari tasdiqlangan.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi 632-sonli qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to‘g‘risidagi Nizom” [8] tasdiqlandi.

Unga ko‘ra, “Zaleplon”, “Pregabalin”, “Sibutramin”, “Tropikamid”, “Siklopentolat” va “Gabapentin” nomli moddalar alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalar etib belgilandi va ularning muomalasi psixotrop moddalarga qo‘llaniladigan tartib asosida amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Bugungi kunda giyohvandlik vositalari, psixotrop va alohida toifadagi kuchli ta’sir qiluvchi moddalarning yangidan-yangi turlari va ular bilan bog‘liq xavflarni yildan-yilga ortib borayotgani doimiy ravishda sohani tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlarni takomillashtirib borilishini taqozo etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonuni 1999-yilda qabul qilingan bo‘lib, shu kunga qadar deyarli o‘zgartirishlar kiritilmagan.

Shuningdek, respublikaning giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash Vazirlar Mahkamasining 2003-yildagi qarori asosida amalga oshirilib kelinmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2003-yilda O‘zbekiston aholisi soni taxminan 25 million kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yil aprel oyiga qadar 37 million kishiga yetdi. (Statistika agentligi tomonidan e’lon qilingan, gazeta.uz, kun.uz saytlari). Raqamlar o‘rtasidagi tafovut ushbu yo‘nalishdagi qonun va qonunosti hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozimligini taqozo etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilar taklif etiladi:

1. Qonunchilikni takomillashtirish, xususan:

– xalqaro standartlarga muvofiq ravishda “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahririni ishlab chiqish;

– “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo‘lish tartibini belgilab beruvchi nizomlarni tasdiqlash to‘g‘risida” Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 29- oktabrdagi 472-sonli qaroriga [9] o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish.

2. Nazorat organlari rolini kuchaytirish: maxsus nazorat organlari faoliyatini yaxshilash, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash va malakasini oshirish lozim.

3. Maxsus axborot tizimini joriy qilish: qayd etilgan moddalarni import, saqlash va tarqatilishini (chakana) onlayn monitoring qilishga imkon beruvchi elektron axborot tizimini ishlab chiqish kerak.

4. Profilaktika va ta'lim dasturlarini joriy etish: giyohvandlik vositalarining zarari, ulardan foydalanish oqibatlari va qonunbuzarlik javobgarligi haqida keng jamoatchilikka ma'lumot berish darkor.

Yuqorida ilgari surilgan fikr-mulohazalar qonun ijodkorligi jarayonini yanada takomillashtirish, qonunlarning sifatli va samarali ishlashini taminlashga muayyan darajada ko'maklashadi deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni, <https://lex.uz/ru/docs/-86044>

2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, <https://lex.uz/docs/97664#1423196>

3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, <https://www.lex.uz/docs/111453>

4. Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 may PQ-3723-son Qarori, <http://lex.uz/docs/3735818>

5. Dori vositalari noqonuniy aylanishining oldini olish choralarini kuchaytirish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabr PQ-4438-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/-4501278>

6. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni O'zbekiston respublikasi hududi orqali olib kirish, undan olib chiqishva tranzit tarzida o'tkazish tartibini, shuningdek ularning muomalada bo'lishi yuzasidan nazoratni

takomillashtirish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 12 noyabr 330-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/2815340>

7. O'zbekiston Respublikasida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 sentyabr 818-sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4532164>

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 4 oktyabrdagi 632-sonli qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida alohida toifadagi kuchli ta'sir qiluvchi moddalar muomalasini tartibga solish to'g'risidagi Nizom", <https://lex.uz/uz/docs/-7132128>

9. O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarning muomalada bo'lish tartibini belgilab beruvchi nizomlarni tasdiqlash to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 29 oktyabr 472-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-246696>

10. "Alkagolli tovarlar kontrabandasini to'xtatish to'g'risida"gi konvensiya, <http://base.garant.ru/2540294/>

11. Единая Конвенция О наркотических средствах, <https://lex.uz/uz/docs/2673450>

12. Конвенция О психотропных веществах, <https://lex.uz/ru/docs/2676167>

13. Конвенция О борьбе против незаконного оборота наркотических средств и психотропных веществ. <https://lex.uz/ru/docs/2614140>

14. Международное уголовное право (Под общей редакцией А.В.Бриллиантова. – Москва: Юрайт, 2017.

15. Словарь иностранных слов. – Москва: Политиздат, 1990.

16. Уголовный кодекс Российской Федерации. ст.200-1, 200-2,226-1, 229-1. <https://www.legislationline.org/ru/documents/section/criminal-codes>

17. Уголовный кодекс Азербайджана. Ст.206. <https://www.legislationline.org/ru/documents/section/criminal-codes>

18. Уголовный кодекс Республики Казахстан, https://online.zakon.kz/document/?doc_id=31575252#pos=3274;-56

19. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 24-fevraldagi 30-I, 31-I va 32-I sonli qarorlari, <https://lex.uz/ru/docs/2672983>

20. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023 yil 20 fevraldagi “Bojxona to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish va kontrabandaga oid ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-sonli Qarori, <https://www.lex.uz/docs/2259789>.

21. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi (Nashr uchun mas’ul: R.A.Muhitdinov va boshq. / Mas’ul muharrir: N.Toychiyev – Toshkent: Adolat, 2009.

22. Perrin B. Migrant Smuggling: Canada’s Response to a Global Criminal Enterprise//International Journal of Social Science Studies.2013.№ 1(2).P.139–153

23. <https://ru.wikipedia.org>.